

Qabul qilindi: 05.09.2024

Chop etildi: 30.10.2024

UDK: 39:902(100)(083.13)

XIVA DARVOZASIDAGI RAMZ VA BELGILAR (OTA DARVOZASI MISOLIDA)

*Djabborova Adolatxon Kazakbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti Tarix va
geografiya kafedrasida o'qituvchisi*

THE SYMBOL AND SIGNS IN THE XIV GATE (USING THE EXAMPLE OF THE FATHER'S GATE)

*Jabborova Adolathan Kazakbaevna
Lecturer at the Department of History and Geography of the
Urgench State Pedagogical Institute*

СИМВОЛ И ЗНАКИ В XIV ВОРОТАХ (НА ПРИМЕРЕ ОТЦЕВЫХ ВОРОТ)

*Джабборова Адолатхан Казакбаевна
Преподаватель кафедры истории и географии Ургенчского
государственного педагогического института*



jabbarovaadolat5@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0002-2326-9662>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva shahri Ichonqal'aning g'arbiy qismida joylashgan va hozirgi kunda sayyohlarnir ramziy belgilar yozuvlar bilan naqshli bezaklarda bezatilgan Ota darvozasi haqida tahlil qilamiz. Xivada to'tta darvoza bo'lib bugungi kunda asosiy kirish eshigi Ota darvozasidir.

Kalit so'zlar: Xiva Ota darvozasi, yozuvlar tahlili, muammo uslubi, tarixi, Muhammad Aminxon.

Abstract: In this article, we will analyze the Father's Gate, which is located in the western part of the city of Khiva and is currently decorated with symbolic symbols and inscriptions. There are four gates in Khiva, today the main entrance is Ota Gate.

Key words: Khiva Ota gate, analysis of inscriptions, problem method, history, Muhammad Aminkhan.

Аннотация: В этой статье мы проанализируем Ворота Отца, которые расположены в западной части города Хивы и в настоящее время украшены символическими символами и надписями. В Хиве четыре ворот, сегодня главным входом являются ворота Ота.

Ключевые слова: Хивинские ворота Ота, анализ надписей, проблемный метод, история, Мухаммад Аминхан.

KIRISH. Xivaning qadimiy me'moriy obidalari, O'zbekistonning Xorazm viloyatida joylashgan bo'lib, tarixiy va madaniy jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Bu me'moriy obidalar ko'plab tarixga guvoh bo'lgan va me'morchilikda shu davrlarga xos bo'lgan belgi, ramzlarni inshootlarni bezashda aks ettirilgan. Bu me'moriy yodgorliklarimiz arxitektura jihatdan ham, madaniy meros nuqtai nazardan ham, estetik qadryatlarni o'rganishga ham g'oyat katta qiziqish uyg'otadi. Me'moriy obidalarda aks ettirilgan belgi, ramzlar turli xil naqshlarda,

yo'zuvlarda keltirib o'tilgan. Hali hanuzgacha xiva shahri me'moriy obidalaridagi bu me'morchilik turli xil naqshlari o'rganilishi nihoyasiga yetmagan.

Naqsh va bezaklar bilan tasvirlangan Xiva Ichonqal'a darvozasi ham Qadimiy Shahar va qal'alarda darvozalar mudofa tizimi, himoya vositasi bo'lib xizmat qilgan. Darvozalar asosan shaharga kirish eshiklari bo'lib juda ko'plab o'tmish voqealikka guvoh bo'lgan. Qadimiy Xiva shahrining darvozalari to'rtta bo'lib, bular Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza,

Ota darvozalardir. Bu tabaqalar yani eshiklar dunyo to'rt tomonini ifodalagan shuning uchun ham darvozalar to'rt tomonda joylashgan. shuningdek, Ota darvoza Ichanqal'aning g'arbiy tomonidagi eshigi bo'lib, hozirgi kunda esa Xiva shahrining asosiy darvozasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS)

Xattotlik san'ati sharq mamlakatlarida, jumladan Xivada qadimdan rivojlangan bo'lib, bu kasb egalarining ishi yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan va tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh, bezak vazifasini ham o'tagan. Ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay, ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar va "muammo" usulida tarixiy sanalarni so'zlar vositasida yashirin qilishgan.[1]

Darvozalar- ning aynan shu hovliga o'rnatilganini tasdiqlovchi ikkita foto-surat Xiva muzeyi arxivida saqlanmoqda. Bu rasmlarni birinchi o'zbek kinooperatori, fotograf Xudoybergan Devonov tushirgan va suratning pastiga «Muhammad Aminxonning Angarikdagi hovlisi» deb, yozib ham qo'ygan. Rasmlarning bittasi uzoqdan tushirilgan bo'lib, unda hovlining old tomoni to'liq tasvirlangan, ikkinchi suratda hovlining darvozasi yaqindan tushirilgan. Mana shu rasmda darvozaning naqshlari ko'rinib turibdi-ki, ular aynan bugun Ota darvozaga o'rnatilgan eshiklar ekanini tasdiqlaydi.[2]

Ota darvozaning ichki uzunligi 10 metr, eni 4 metr bo'lib, o'rta yo'lak ikkita katta gumbaz bilan, yon atrofdagi to'rtta xona kichik gumbazlar bilan bostirilgan. Xonlik davrida bu xonalarda qorovulxona, sarrofxona (pul ayirboshlash), bojxonalar bo'lgan. Afsuski, darvoza XX asning 20-yillarida yo'lni kengaytirish bahonasida buzib tashlangan. 1968 yilda Xiva shahri muzey – qo'riqxona deb e'lon qilinishi hamda shaharga kelayotgan sayyohlar sonining ortib borishi bilan darvozani qayta tiklash zarurati paydo bo'ldi. 1975 yilda darvoza o'z o'rnida va asl ko'rinishida qayta tiklandi. [3]

Islom dini o'rnatilgandan so'ng ham Sharq xalqlarida eshik, Haq taolo dargohi degan tushuncha bo'lgan. Shuning uchun kop joylarda eshiklarda quyidagi yozuv bilan:

Kushoda bod ba davlat hamisha dargoh

Ba haq ashhadu an lo iloha illalloh”

Ma'nosi:

Bu eshik baxt uchun doimo ochiq bo'lsin!

Guvohlik beramanki, Allohdan o'zga iloh yo'qdir.[4]

Eshik ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va qorong'ulik, yangilik va eskilik chegarasidir - ochiladi, yoipiladi, shu bilan nafaqat o'z vazifasini bajaradi, balki quyosh chiqishi va botishi, kutib olish va kuzatish kabi ramzlarni ham ifodalaydi. Bu yerda eshik tabiat bilan bog'liq tushunchaga ega bo'lgan. Shuning uchun ham Sharq xalqlarida xonadon baxt - saodati, eshik va tomonlarga bogliq, deb tushunilgan [5].

O'zbekistonda o'ziga xos ganchkorlik maktablari mavjud. Shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir. Xorazm me'morchiligida geometrik naqshlarga keng o'rin berilgan bo'lib, ular boshqa viloyatlaiga qaraganda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanmaligi, dinamikligi bilan farq qiladi. [6]

Ichan qal'aning ichki shahri zich joylashgan, shuning uchun Xivaning diqqatga sazovor joylari ixcham, kichik bir hududda joylashgan. Ichan qal'adagi binolarning ko'pchiligi asl qiyofasini – tosh bilan qoplangan ko'chalarni, masjid va minoralarni, madrasa va hujralarni saqlab qolgan. Siz shaharga to'rtta darvozadan biri orqali borishingiz mumkin: Bog'cha-Darvoza – shimoliy, Tosh-Darvoza – janub, Polvon-Darvoza – sharqiy, Ota-Darvoza – g'arbiy. [7]

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Qadimiy Shahar va qal'alarda darvozalar mudofa tizimi, himoya vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek qadimiy Shahar bo'lmish Xiva shahrining darvozalari ham aynan mudofa tizimini ta'minlovchi vosita sifatida e'tirof etilgan. Darvozalar asosan shaharga kirish eshiklari bo'lib juda ko'plab o'tmish voqealikka guvoh bo'lgan. Qadimiy Xiva shahrining darvozalari to'rtta bo'lib, bular Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvozalardir. Bu tabaqalar yani eshiklar dunyo to'rt tomonini ifodalagan shuning uchun ham darvozalar to'rt tomonda joylashgan. shuningdek, Ota darvoza Ichanqal'aning g'arbiy tomonidagi eshigi bo'lib, hozirgi kunda esa Xiva shahrining asosiy darvozasi hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra darvoza Eltuzarxon tomonidan

(1804-1806yy)pishgan g'ishtdan qurilgan. Ota darvozasining ichki qismi uzunligi 10 metr, enining uzunligi esa 4 metr. Darvozaning to'rtta asosiy xonasi bo'lgan. Ammo bu darvoza XX asrning 20-yillariga kelib yo'lni yanada kengaytirish sababi bilan buzib tashlangan. Xiva shahri 1968-yilda shahar muzey qo'riqxonasi deb e'lon qilindi va shundan keyin bu qadimiy shaharga sayyohlarning ham qiziqishlari ortdi. 1975-yilda esa bu darvoza usta Samandar Qalandarov, Polvon Otajonov va Matyoqub Jumaniyozovlar yordamida qayta tiklandi. Ammo bu davrga kelib darvozaning eshiklari allaqachon yo'qolib ketgan edi. Ota darvozasining qayta qurilishida eshikning bizning davrgacha yetib kelmaganligi sababli, uning o'rnida boshqa eshik keltirib o'rnatilgan. Bu eshikning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Xiva shahrida bu davrda yog'och o'ymakorligi juda yaxshi rivojlangan.

Bugungi kunda esa Xiva shahriga tashrif buyurgan sayyohlarni Xiva shahrining me'moriy obidalari bezashdagi belgi, naqsh yozuvlar bilan ifodalangan yuksak san'at asari lol qoldirib kelmoqda. Ularning yozuvlari naqshlari esa alohida purma'noga egadir. Buni Ota darvoza tarixini unda yozilgan yozuvlardan ko'rib bilib olamiz. Bu darvozaning yuqori qismida har ikkalasida ham to'rtburchak ichida bir xil o'lchamda (85x85cm)doira shakli chizilgan. Bu doira shaklining ichki qismiga uzun-uzun chiziqlar tortilgan. Bu tortilgan chiziqlar esa doiraning markaziy qismida katta va kichik sakkiz qirrali yulduz shaklini hosil qiladi. Bu tasvirlangan chiziqlar ichida naqsh qilib arab alifbosida qur'on oyatlari yozilgan.

Madaniyatimizga islom dinining kirib kelishi islom talablarining ham kirib kelishiga olib keldi. Natijada odamlar parrandalar jonivorlarni chizish yo'qolib bordi va uning o'rnini naqqoshlikdagi ramziy ma'nolarga ega bo'lgan epigrafik arab tilidagi naqshli yozuvlar va o'simliksimon bezaklar egalladi.

Islom dini o'rnatilgandan keyin sharq xalqlari madaniyatida eshik asosan Yaratganning dargohi tushunchasi paydo bo'lgan. Shu sababli ko'p joylarda eshiklarga "bu eshik baxt uchun hamisha ochiq, guvohlik beramanki Allohdan o'zga iloh yo'q" degan yozuvlarni uchratishimiz mumkin. Eshik yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, yangilik va eskilik chegarasi sifatida

ham qaralgan. Shuning uchun eshikka xonadon egalari yovuzlikdan saqlaydi degan maqsadda Qur'on oyatlarini ham yozganlar. Bu darvozalarni bezashda aylana shakldagi naqshlarni ham ko'ramiz. Aylana shaklidagi naqshlar ham alohida ma'nolarni o'zida aks etgan bo'lib, aylana shaklidagi naqshlar ichiga har xil chiroyli gullar rasmi bilan jilolangan. Yoki naqshlarning o'zi aylana shaklda bezatilgan. Aylana shaklining ramzi esa yovuz niyatli kishilarni niyatidan qaytarish ramzini bildirgan.

Xiva ota darvozasi o'ng tabaqasida (eshik, qopi) arab yozuvi alifbosida naqshlar aylana ichiga yozilgan. aylana qalqon himoyachi bo'lib bu xalqni yomonlik va yovuzliklardan himoyachi vazifasini bajargan. Bu yozuvlarning ma'nosi esa Alloh yagona u abadiy har doim uyg'oqdir. Ushbu yozilgan duo haqiqatdan ham diqqat bilan qaralsa qalqonsimon shakl doira ichida tasvirlangan, Qur'on oyati esa yovuzlikdan asrovchi qalqondir. Xiva naqqoshligida bu yog'ochga yoki memoriy obidalarda ustalar o'zlari ishlagan naqshlariga o'z ismi va davrini yozib ham qoldirganlar. Xiva naqqoshlik san'atida harflardan sonlarni ifodalash orqali bezak ma'nolari yashiringan naqshlar bilan bezatilgan. Bu usul esa muammo (arabcha) uslubi bo'lib ma'nosi yashiringan. Madrasalarda ya'ni eski maktablarda bolalarga arab alifbosi bilan birgalikda abjad hisobi ham o'rgatilgan. Bu abjad hisobi arab harflarining alifbosida joylashgani bilan raqamlar ham o'rgatilgan.

Masalan A harfi birni B harfi esa ikkini anglatgan. Bilamizki arab alifbosida harflar uch to'rt ko'rinishga ega. Arab harflarini yog'ochga o'yib naqsh bezak yaratilar ekan, bu muammo uslubida usta qachon va kim tomonidan bu naqshlar qilinganligi ha'qida ma'lumotlarni ham o'zida saqlagan.

Darvozaning chap qismida Allohdan boshqa yaratguuvchi yo'qligi va Muhammad uning rasuli - payg'ambaridir deb arab yozuvida yozilgan epigrafik naqshlar ifodalangan. Bu kalimani aytgan inson esa shuningdek uning panohida himoya topadi.

Ota darvozasi qayerdan kelganligi tarixiga kelsak, bunda yozilgan tarixiy sanalarga ko'ra Ota darvoza Muhammad Amin davrida tuzatilgani haqida ma'lumotlar bor. Bu darvozaning fotosuratlarini birinchi o'zbek kinooperatori fotagraf Xudayberdi Devonovning suratlarida aks ettirilgan. Uning Muhammad Aminxon Angarikdagi hovlisi deb yozib qo'yilgan foto suratdagi rasm aynan shu

ota darvozasining rasmi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Rasmlarning esa biri uzoqdan va biri yaqindan tushirilgan bo'lib, rasmda ko'rinib turgan darvozaning rasmi aynan shu ota darvozasiga o'rnatilgan darvoza ekanligini tasdiqlaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra Muhammad Aminxonning hovlisi juda eskirgan va yiqilib ketgan. Faqatgina uning eshiklari qolgan. Bu eshiklar esa Ota darvozaga o'rnatilgan. Bu eshik hijriy qamariy 1266-1267-yillar milodiy 1849-1850-yillarga to'g'ri keladi. Bu eshiklar hozirgi kunda odamlarga ezgulik ulashuvchi tilaklar bilan xizmat qilib kelmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xiva shahri qadimiy me'morchilik obidalari saqlanib qolganligi bilan e'tiborga loyiq. Xivaning inshootlari qurilishi ham, uni bezashdagi naqshlar ham o'z davriga xos xususiyatga ega. Shunday xususiyatlardan biri bu obidalardagi xattotlik san'ati bilan ma'nolari yashiringan naqshlardir. Shuningdek ular faqat naqshlar bilan bezashdan tashqari bu imoratlarning qachon qurilganligi haqida ham ma'lumotlarni muammo usulida inshootlarning bezaklarda ma'lumotlar keltirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Xudayberganov.K. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a – T.2012. -B. 4.
2. Xudayberganov.K. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a – T.2012. -B. 26.
3. <https://khivamuseum.uz/uz/ota-darvoza>
4. Nozilov. D. Orta Osiyo me'morchiligida odatlar, qoidalar va ramziy ifodalar. T.: San'at. 2011. -B. 80.
5. Nozilov. D. Orta Osiyo me'morchiligida odatlar, qoidalar va ramziy ifodalar. T.: San'at nashriyoti. 2011. -B. 81.
6. S.Bulatov, A.Muxtorov. ganchkorlik san'ati.Musiq nashriyoti. 2006.-B 7.
7. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khiva>

